

**YOSHLAR O'RTASIDA HUQUQIY SAVODXONLIKNI
YUKSALTIRISH DAVR TALABI**

Abdusalimova Shaxnoza.

*Termiz Davlat Pedagogika instituti Pedagogika
va ijtimoiy fanlar fakulteti Milliy g'oya,
ma'naviyat asoslari va huquq
ta'limi yo'nalishi 3-bosqich talabasi*

Annotatsiya. *Ushbu maqolada huquqiy savodxonlikning jamiyat hayotidagi ahamiyati, shuningdek, uning yoshlar orasida targ'ib qilish hamda yuksaltirish masalalari haqida yoritilgan, shuningdek, mamlakatimizda huquqiy saviyani rivojlantirish uchun olib borilayotgan ko'plab islohotlar hamda tadbirlar o'z aksini topgan.*

Kalit so'zlar: *huquqiy savodxonlik, saviya, siyosiy saviya, huquqiy madaniyat,*

Kirish. Hozirgi globallashib borayotgan dunyoda inson saviyasini kengaytirish, uning mafkurasini xalqning turmush tarzi, hayoti, urf-odatlar va an'analarga moslab tarbiyalash muhim omil hisoblanadi. Biz saviyani o'stirish deganda faqat ma'naviy savodxonliknigina emas, huquqiy, siyosiy hamda diniy jihatdan ham jamiyatimizning a'zolarini saviyali qilishimiz kerakligini nazarda tutmoqdamiz. E'tibor qaratadigan bo'lsak, agar biz siyosiy jihatdan savodxon bo'lsak, biz siyosatdagi jarayonlarning mohiyatini anglay olamiz va undan to'g'ri xulosa chiqara olamiz. Siyosiy savodxonlik bu jamiyatning siyosiy hayotida ongli ravishda ishtirok etish uchun zarur bo'lgan qobiliyatlar to'plamidir [1;63-b]. Agar biz huquqiy saviyaga ega bo'lsak, qilyotgan ishlarimiz qanday oqibatlarga olib kelishi va bu bizning hayotimizga qanday oqibatlarni keltirib chiqarishi mumkin ekanligini qonun bilan uyg'un holda anglay olamiz ya'ni biz harakatlarimizning oqibati qonunda qay tarzda yoritilganligini bilamiz. Agar bizda diniy saviya shakllangan



bo'lsa biz turli xil guruhlarining da'vatlariga aldanib qolmaymiz. Zeroiki, saviyali bo'lgan insongina hayotimizda ro'y berayotgan voqealarning asl mazmunini tushuna oladi hamda ularni tahlil qilib, qanday oqibatga olib kelishini anglay olishadi. Yuqoridagilar esa saviyaning inson hayotidagi ahamiyati haqidagi kichik misollardir.

Asosiy qism. Hayotimizda sodir bo'ladigan har bir voqea hamda jarayon bizdan e'tibor va ogohlik talab etadi. Biror jarayonga e'tibor qarata olish esa, albatta, saviyali insonlarga xos xususiyatdir. Biz esa farzandlarimizni yoshligidanoq huquqiy saviyali qilib tarbiyalashimiz zarur. Hammamizga ma'lumki, bugungi kunda yoshlar masalalari davlat siyosati darajasiga ko'tarilgan hamda hozirda uning huquqiy asoslari ham mavjud. Bu huquqiy asoslarning barchasida yoshlarni har jihatdan qo'llab – quvvatlash, ularning huquq va erkinliklarini, ularning manfaatalarini himoya qilish va shu kabi masalalar o'zid aks ettirilgan qonun loyihalaridir.

Shulardan biri O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi kengashi tomonidan 2020- yil 18-may kuni “ Yoshlarning huquqiy madaniyatini yuksaltirish, ular o'rtasida huquqbuzarlik va jinoyatchilikning oldini olishga qaratilgan vazifalar ijrosi ustidan ta'sirchan parlament nazoratini amalga oshirish to'g'risida”gi 274-IV- sonli qarori qabul qilindi. Bu qarorda yoshlarning tarbiyasiga alohida e'tibor qaratish masalasi yoritilgan. Ular orasida huquqbuzarliklar va jinoyatlarni kamaytirish maqasadida huquqiy madaniyatni o'stirish, huquqiy savodxonlikni rivojlantirish, shuningdek, yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash qonunda o'z aksini topgan.

Statistika agentligining ma'lumotlariga ko'ra, 2023-yil 1-yanvar holatiga ko'ra respublikamizda yoshlarning soni 9 654 351 kishini tashkil etadi va biz buni foiz hisobida aytadigan bo'lsak, jami aholining 26,8 foiziga teng bo'ladi. O'zbekiston Respublikasining “Yoshlarga oid davlat siyosati to'g'risida” gi qonunining 3-moddasi “Asosiy tushunchalar” deb nomlangan va unda quyidagicha yoritilgan: “Yoshlar—o'n to'rt yoshga to'lgan va o'ttiz yoshdan oshmagan shaxslar [2].” Bundan ko'rinib turibdiki, O'zbekiston Respublikasida 14 yosh va 30 yosh oralig'idagi jamiyatimiz a'zolarini biz yoshlar deb bilar ekanmiz. Lekin bu yosh oraliqlari turli mamalakatlarda turlicha bo'ladi, masalan, AQSH va Yaponiyada 13-14 yoshdan 29-



30 yoshlar oralig‘ini tashkil etsa, Bolgariyada 15-29 yosh orasida, Rossiyada esa 15-30 yosh oralig‘ini tashkil etadi. Endi esa huquqiy savodxonlik doirasida amalga oshirilgan amaliy tadbirlarga to‘xtaladigan bo‘lsak, mamlakatimizda har yili “Huquqiy savodxonlik oyligi” e‘lon qilinadi va bu oy davomida ko‘plab amaliy ishlar olib boriladi va biz ularni huquqiy targ‘ibot ishlariga ham misol qilib keltirishimiz mumkin. Shulardan biri, Toshkent farmasevtika institutida 2018- yil dekabr oyi “Huquqiy savodxonlik oyligi” deb belgilandi va yoshlarning huquqiy madaniyatini va saviyani rivojlantirish maqsadida 19-dekabr kuni talabalar bilan ochiq muloqot o‘tkazildi. Bu muloqot barcha jamiyatimiz a‘zolari va talaba yoshlar bilishi kerak bo‘lgan “Huquq va burch” hamda “Yoshlar o‘rtasida huquqbuzarliklarni oldini olishda oila va ta‘lim muassasalarining o‘rni” mavzularida olib borildi va tadbirda 200 dan ortiq 1-bosqich talabalari ishtirok etishdi.

Shunday tadbirlardan yana biri 2023- yili Nizomiy nomidagi Toshkent Davlat Pedagogika Universitetida ham o‘tkazildi. “Ma‘naviyat asoslari va huquq ta‘limi” yo‘nalishi 1- va 2- bosqich 100 dan ortiq talabalar ishtirok etdi va tanlab olingan mavzu esa “Yangi O‘zbekiston va inson huquqlari” edi. Bu tadbirlarni amalga oshirishdan asosiy maqsad har tomonlama barkamol insonlarni yoshlarni tarbiyalash hisoblanadi. Bunday tadbirlar nafaqat talaba yoshlar orasida, balki maktab o‘quvchilaridan tortib davlat organlari xodimlari bilan ham tashkil etildi. 2022- yilda Maktabgacha ta‘lim tizimi xodimlarining huquqiy madaniyatini yuksaltirish, mehnat kodeksi, turli normativ hujjatlar, shular bilan bir qatorda, shartnomalar va murojaatlar bilan ishlash mahoratini kuchaytirish maqsadida shu yilning 14- iyunidan 14-iyuliga qadar “Huquqiy savodxonlik oyligi” tashkil etildi. Maktablarda va turli ta‘lim muassasalarida olib borilgan musobaqa va munozara shaklidagi huquqiy targ‘ibot ishlarini ham biz aynan shu mazmunda amalga oshirilgan islohotlar deb ayta olamiz.

Yuqorida biz savodxonlik, saviya tushunchalari haqida ko‘p gapirdik, endi esa ularning mazmuniga to‘xtaladigan bo‘lsak, “Savodxonlik—deya tadqiqotchi F.F.Xatamov o‘z fikrini bildiradi—ushbu bilim darajasining shaxs qarashlarida, uning ongida va xatti- harakatlarida qay darajada namoyon bo‘lishini ifodalovchi



tushunchadir”[3]. Yuqoridagi ta’rifdan shu ma’lum bo’ladiki, savodxon inson o’z bilimlarini uch ko’rinishda ya’ni ongi, fikrlari va harakatlari orqali namoyon qiladi. Biz afarizmlarning birida “ Fikring qadar insonsan” degan kichigini eshitganmiz. Shaxsning fikrlari , o’ylari orqali uning shaxsiyati ma’lum bo’ladi. Shuning uchun Mirach Chag’ri Oqtosh o’z asarlaridan birida “ O’ylarimiz g’o’zal bo’lsinki, faqat g’o’zallikni ko’raylik” deb aytib o’tadi. Insonning xatti- haraklari esa uning odobini oshkora qiladi. Shuning uchun ham biz farzandlarimizga kichikliklaridanoq odob-axloq qoidalarini o’rgatamiz. Masalan, eng oddiyini misol qilib keltiradigan bo’lsak, hammamiz aftobusda harakatlanish odobini bilamiz ya’niki yoshi katta insonlar kelganida biz ularga joy berishimiz kerak va bizning bu xatti- harakatimiz bizning saviyamizni namoyish qiladi.

Huquqiy saviyaning aholi orasida shakllantirishda muhim tadbirlar yoritilgan O’zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022- yil 16- may kuni qabul qilingan “2022- 2023- yillarda jamiyat huquqiy madaniyatini yuksaltirish bo’yicha chora- tadbirlar dasturini tashqiqlash to’g’risida” gi 259- son qarori muhim ahamiyatga ega. Unda amalgi oshirilishi kerak bo’lgan ishlarning xaritasi tuzilib ilova qilingan. Shu tadbirlardan biri huquqiy savodxonlikni va madaniyatni rivojlantirishni bolalaikdan boshlash maqsadida “Bolalar uchun yuridik ensiklopediya”, “Yoshlar uchun yuridik ensiklopediya” hamda “Har kunlik huquq” singari o’quv qo’llanmalar umumta’lim maktablariga bepul ravishda yetkazilib berilishi va dars mashg’ulotlari davomida qo’llanilishi kerakligi ilovada yoritilgan. Hozirgi kunda bilamizki, hammamiz ijtimoiy tarmoqlarning u yoki bu turidan foydalanamiz. Qaror doirasida ijtimoiy tarmoqlarda yangi “Huquqiy axborot” kanalini shakllantirish ko’zda tutilgan va bu kanalda ma’lumotlar so’rovnoma tarzida berib boriladi ya’ni so’rovnoma natijasi asosida. Biz anchadan beri ta’kidlayotgan huquqbuzarlikning oldini olishga qaratilgan “Qilmish – qidirmish” deb nomlanga ko’rsatuv tasvirga olinishi hamda unda jazo muqarrar ekanligi ko’rsatib berish va insonlarning pushaymonligi aks ettirish nazarda tutilgan. Bu ko’rsatuv real voqealar asosida tasvirga olinishi va efirga uzatilishi rejalashtirilgan. Jamiyat a’zolarini faollashtirishni ko’zda tutadigan yana bir yangi loyiha esa jurnalistlarimiz hamda ommaviy axborot vositalari xodimlari,



shuningdek, bloggerlar orasida amalga oshirilishi maqsad qilingan. Bu loyiha esa huquqiy madaniyat va savodxonlikka qarilgan “Eng yaxshi maqola”, “Eng yaxshi post” kabi nominatsiyalar orqali taqdirlanishi hamda g‘olib xalqning ovozig‘a ko‘ra aniqlanishi kerakligi nazarda tutilgan[4]. Shular bilan birgalikda tibbiyot xodimlari uchun “Sizning huquqingiz” nomli qo‘llanma tayyorlanishi va qo‘llanmada ularning huquq va majburiyatlari yoritib berilishi kerak edi.

Davlat tashkilotlari xodimlarining huquqiy savodxonligi darajasi doimiy ravishda tekshirilib turiladi va baholanadi. Tekshirish test sinovi tarzida har uch yilda bir marotaba tashkil etiladi. Tashkil etishda maxsus reja belgilangan bo‘ladi va u Adliya vazirligi tomonidan boshqa davlat organlari va tashkilotlari bilan kelishilgan holda olib boriladi. Test sinovi onlayn ravishda, belgilangan kunda va vaqtda o‘tkaziladi, unda ishtirok etuvchi shaxs ro‘yxatdan o‘tganidan so‘ng videokuzatuv orqali maxsus xonada test topshiradi. Testlar soni 40 tani tashkil etadi va uni bajaruvchi shaxsga 50 daqiqa vaqt ajratiladi, shuningdek, har bir to‘g‘ri test javobi 2,5 balldan baholanadi. Baholashda esa to‘rtta daraja mavjud bo‘lib, bu darajalar haqida O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021- yil 13- mart kuni qabul qilingan “Davlat tashkilotlari xodimlarining huquqiy savodxonligini yanada oshirish chora - tadbirlari to‘g‘risida” gi 134- son qarorida yoritib o‘tilgan. Unga ko‘ra dastlabki daraja a‘lo bo‘lib 86 ball va undan yuqori ball to‘plagan xodimlar uchun; yaxshi daraja esa 71 balldan 85 ballgacha bo‘lgan; qoniqarli daraja esa 56 balldan 70 ballgacha , eng past ko‘rsatkich esa 0 balldan 55 balgacha bo‘lib qoniqarsiz darajani tashkil qiladi. Qoniqarsiz darajada ball to‘plagan davlat organlari xodimlari qayd etilgan taqdirda esa ular baholashdan o‘tishmagan hisoblanadi [5].

Xulosa. Bizning fikrlarimiz, aytayotgan so‘zlarimiz hamda harakatlarimiz bizning saviyamizni o‘zida akslantirar ekan, biz har doim savodxonlik darajamizni yuksaltirishga va ularni yoshlarimizga ham tarannum etish uchun harakatda bo‘lishimiz zarur.

Buning uchun avvalo, bizning o‘zimiz ham huquqiy savodxon shaxslar bo‘lishimiz, ularga o‘rnak bo‘la olishimiz kerak, bu faqatgina huquqiy jihatdan emas, balki, barcha jihatlardan barkamol bo‘lishni nazarda tutmoqdamiz.



Ikkinchidan, mamlakatimizda amalgi oshirilayotgan islohotlarning zahirida ham yosh avlodni barkamol qilib tarbiyalash masalalari mavjud.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR.

1. H.M. Rasulov. Siyosiy ong va siyosiy madaniyat. T.: “Impress Media” MCHJ nashriyoti. -2024, 63-b
2. O‘zbekiston Respublikasi “ Yoshlarga oid davlat siyosati to‘g‘risida” gi Qonuni, 14.09.2016 yildagi O‘RQ- 406- son.
3. Xatamov. F.F. Huquqiy savodxonlik falsafiy tadqiqot obyekti sifatida. Samarqand—2019. 13-b
4. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “ 2022- 2023- yillarda jamiyat huquqiy madaniyatini yuksaltirish bo‘yicha chora- tadbirlar dasturini tashqiqlash to‘g‘risida” gi qarori, 16.05.2022 yildagi 259- son.
5. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Davlat tashkilotlari xodimlarining huquqiy savodxonligini yanada oshirish chora- tadbirlari to‘g‘risida” gi qarori, 15.03.2021 yildagi 134- son.